

Baytda shoir Sulaymonning butun olamga hukmronligini tilga olish orqali, yorning oyog‘i nahshini yuzimga surtsam go‘yo Sulaymonman deyayotgandek yorni kuylamoqda.

Xullas, Huvaydo ijodida Sulaymon obrazining qo‘llanilishi katta ahamiyatga ega. Birinchidan, shoir Sulaymonning an‘anaviy sifatlarini o‘ziga xos talqin qilish orqali vujudi mutlaqni ulug‘lagan bo‘lsa, ikkinchidan, shoir zamondoshlari, umuman, kitobxonni pand-nasihat orqali o‘zining so‘fiyona qarashlari bilan uyg‘otishga, qalb ko‘zini ochishga intilgan. Umuman olganda, Huvaydo ijodida Navoiy an‘analari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo Huvaydoning o‘ziga xos yo‘li, uslubi borligi uning iste’dodli ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 томлик. 11-том. Saddi Iskandariy. – Т.: Fan, 1993.
2. Alisher Navoiy. “Tarixi anbiyo va hukamo”. Elektron variant.
3. Nusratulla Jumaxo‘ja. Navoiy g‘azaliyoti talqinlari. – Т.: O‘zbekiston, 2018.
4. Xo‘janazar Huvaydo. Devon. –Т.: Yangi asr avlod. 2007. 303-b.
5. G‘aniyeva S, Zohidov V. Huvaydo xalq dilida. ”Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1961,15-sentabr
6. Zohidov V. Xalq dilida Huvaydo Chimyoni. ”Toshkent oqshomi” gazetasi, 1968, 4-mart.
7. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. –Т.: Fan.1961.
8. Xudoibergiyev A. Alisher Navoiy va Huvaydo. “Adabiyot va hayot”.1980, 6-son.
9. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. –Т.: Cho‘lpon.1992. –B.197.
10. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. Modern Science and Research, 2(10), 755-757.
11. Muhammad Sayyid Tantoviyning “Payg‘ambarlar tarixi”.(Qur’oni karim qissalari). - Т:,2023.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI NA’T BOBLARNING G‘OYAVIY –BADIY XUSUSIYATLARI

Fayzulla ISKANDAROV
TDO ‘TAU, PhD

“Xamsa” yaratishga katta tayyorgarlik ko‘rgan Navoiy har bir dostonning har tomonlama yetuk, badiiy jihatdan mukammal bo‘lishiga katta e’tibor bergan. Sharqdagi xamsachilik an‘anasini davom ettirish, salaflari qatorida adabiyot bo‘stonida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lish, qolaversa, idealga intilish, komillik va komil inson haqidagi qarashlarini bayon etish Hazrat Navoiyning hayotdagi eng asosiy missiyalaridan biri edi. Shu ma’noda shoir ijodini hamda adabiy-estetik ideal haqidagi qarashlarini o‘rganish juda muhim. Ushbu masala doirasida “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganar ekanmiz, Navoiy dostonning an‘anaviy tarzda Allohnning hamdi bilan boshlaydi. Bu mashaqqatli yo‘lda Yaratgandan yordam so‘rab, “bu yo‘ldagi barcha ma’nolar eshigining kaliti seni hamding bilan ochiladi”, - deb yolvoradi. Dostonning yaratilishi bilan bog‘liq jarayon oldi shoir o‘zini o‘zi taftish etadi, kuchli hayajonga berilib Yaratuvchining oldida nihoyatda ojizligi hamda barcha ishda uning o‘zidan yordam so‘rab, o‘zigagina tayanish lozimligini qayta-qayta ta’kidlaydi:

Ochib ul ganj qulfin bu kalidim,
Nasibam ayla neki bor umidim.

Nechakim istasam naqdi javohir,
Qayon boqsam ko‘zumga ayla zohir...
Nima ko‘p olmog‘imga mone’ etma,
Necha ko‘p olg‘onimga qone’ etma [Navoiy, 2006: 5].

Yaratuvchining hamdidan so‘ng, adabi tasnifga ko‘ra, yaratilmishlarning sababchisi, ikki olam sarvari, yaratiqlarning sardori Nabiy alayhissalom madhi boshlanadi.

“Haqni sevish, haqiqatni qidirish, ilm-u ma‘rifat egallab..., qalb sofligi, ko‘ngil pokligini qo‘lga kiritish targ‘ibi, buning uchun ilohiy sifatlarni o‘zlashtirish, ruh erkinligiga” [Komilov, 2001: 16] erishish lozimligi haqidagi “shavq dostoni” – “Farhod va Shirin”da Alisher Navoiy nabiy madhiga 3-4- boblarda maxsus to‘xtaladi. Uchinchi bob 35 baytdan iborat bo‘lib, vasfiy na’t bob hisoblanadi. 68 bayt iborat to‘rtinchi na’t bob Rasul alayhissalomga berilgan buyuk mo‘jiza me’roj haqida.

Nabiyullohning komil xulqi ta‘rifiga bag‘ishlangan dostonning uchinchi bobi – vasfiy na’t “Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshig‘a soya soldi va “Vash-shams” bila “Val-layl” surasini aning yuz quyoshi bila zulfi tuniga o‘xshatilg‘onidin har biri bir biyik poya oldi, agarchi ul quyoshqa soya yo‘q erdi va ul kechaga manzil quyosh ustida-o‘q erdi. “Va sallallohu alo shamsi jamolihi va zilli kamolihi” [Navoiy, 2006: 12] sarlavhasi bilan boshlanadi. Sarlavha – asarning siqiq mazmuni va u shoirga alohida mas’uliyat yuklaydi. Chunki, sarlavhani shakllantirishdagi eng qiyin vazifa, bu – muallifning ko‘zlagan adabiy maqsadini yangi ifodalar orqali qisqa jumlalarda ko‘rsatib berishdir. Alisher Navoiy barcha asarlarida “katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o‘sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko‘zlangan maqsad va mavzuga ham muvofiqlashtirishga intiladi” hamda “sarlavhaga axborot berishdan tashqari, mazmunni yangicha obrazli ifodalash, estetik zavq berish, badiiy mahoratni ko‘rsatish singari funksiyalarni yuklaydi” [Ismoilov, 2019: 44]. Odatda, asosiy g‘oyani sarlavhadan boshlaydigan Navoiy, bobning ilk jumlasidanoq, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning komil xalqlari – shakl-u shamoyili, tashqi ko‘rinishlari vasfiga oid poetik informatsiyani beradi. “Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshg‘a soya soldi...” jumlesi sarlavhadagi asosiy tezis bo‘lib, **quyosh, tun, soya** obrazlari tanosubida bobdagি muhim fikrlar badiiy talqin etiladi. Komillar komilining yuzini quyoshga, sochining qorasini tunga o‘xhatgan Navoiy u zotning go‘zallagini “Vash-shams bila Val-layl” suralariga mengzaydi.

Ushbu suralarda Alloh taolo quyosh va uning ziyosi, uning ortidan kelgan oy, quyoshni ravshan ko‘rsatgan nahor va uni qoplagan tun, osmonlarning bino qilinishi-yu yer va uning to‘shalishi hamda nafs va uning mukammal qilinishi bilan qasam ichadi. “Bunda, avvalo, qasam ichiladigan narsalarga e’tibor tortish bilan bir qatorda, ularning ketidan zikr qilinadigan xususiyatlariga ham e’tiborni tortish qasd qilingandir... Bu bilan inson, Alloh taologa taqvo qilsa, najot topishi, tug‘yon va isyonga ketsa, ziyonga uchrashi ta‘kidlanadi” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008: 640]. Ayni paytda, “Alloh taoloning shuncha narsalar bilan qasam ichishidan maqsad – ulardan keyin keladigan masala, ya’ni inson nafsining pok bo‘lishiga e’tiborni tortish, uning ahamiyatini orttirishdir” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008: 595]. Suralarning keyingi oyatlarida insonlar nafsning ikki yo‘li: fujur va taqvo haqida ogohlantirilib, yaxshilik va yomonlik orasi aniq ko‘rsatiladi. Yuqoridaqilarga amal qilganlar esa, “Batahqiq, kim u (nafs)ni poklasa, yutuqqa erishi” [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2008: 595] shi uqtiriladi. Navoiy ushbu nozik ma’nolar orqali dostondagi asosiy masala – komillik yo‘lidagi Farhod bilan nafs yo‘lida andarmon Xusrav orasidagi azaliy kurashga ishora qiladi.

Navoiyning komillik va komil inson haqidagi asosiy qarashlarini bayon etgan “shavq dostoni” “Farhod va Shirin”dagi me’roj ham qorong‘u kecha tasviri bilan boshlanadi. “Ul shahsuvor vasfidakim, qarong‘u tunda tiyra xokdondin Buroqi barqvash uzra chiqqoni “Min az-

zulumoti ilan-nur”din muxbir erdi, balki ul rokibning pok zoti ostidag‘i pok oti, bila “nurin alo nur”din xabar berdi va bu nurlar malakut shabistonini munavvar va malak” [Navoiy, 2006: 14] sarlavhasi bilan boshlangan ushbu 68 baytdan iborat na’tning dastlabki sakkiz bayti tun tasviri, ellik olti bayti me’roj voqeasi va so‘nggi besh bayti shoirning shafoat umididagi iltijolaridan iborat. Sarlavha asarning siqiq mazmuni bo‘lib, bu har bir shoirga alohida mas’uliyat yuklaydi. Chunki, sarlavha yaratishdagi eng qiyin vazifa – shoir ko‘zlagan adabiy maqsadni yangi ifodalar orqali muxtasar taqdim etishdir. Alisher Navoiy barcha asarlarida “katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o‘sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko‘zlangan maqsad va mavzuga ham muvofiglashtirishga intiladi...” hamda “sarlavhaga axborot berishdan tashqari, mazmunni yangicha obrazli ifodalash, estetik zavq berish, badiiy mahoratni ko‘rsatish singari funksiyalarni yuklaydi”[Ismoilov, 2019: 44]. O‘zining asosiy maqsad va g‘oyasini sarlavhadan boshlaydigan Navoiy, bobning “*qarong‘u tunda tiyra xokdondin Buroqi barqvash uzra chiqqoni* “Minaz-zulumoti ilan-nur”din muxbir erdi” jumlasidayoq, yoritilishi kerak bo‘lgan masalani aniq va ravshan bayon etib, nafaqat ushbu bob, balki butun bir doston uchun ishora qiladigan xabarni beradi. “Min az-zulumoti ilan-nur”din muxbir erdi” jumlesi sarlavhadagi asosiy tezis bo‘lib, komillar komilining “nodonlik, jaholat, g‘azab, hasad, makr... bir so‘z bilan aytganda yovuzlik in qurban tuproq olamidan chiqib, Ilohiy nurga g‘arq malakut va lohut olamlarini sayr etgani va olamdagisi osiy bandalarga ayni shafoat bo‘lib qaytgani Farhoddek Ilohiy Haqiqat va Muhabbat yo‘lidagi soliklarga ibrat namunasi sifatida”[Davlatov, 2017: 46]gi talqinidir.

Ul aqshomkim, yuzida lu’bati Chin,
Eshib marg‘ula yoydi zulfi mushkin.
Nasim ul mushk isin butrotti har yon,
Havo ra’nolarig‘a sotti har yon[Navoiy, 2006: 15].

Chin go‘zali mushkini atrofga yoygan oqshom chiroyi bilan boshlangan ushbu bobda shoir tun tasviri berilgan ilk baytlardanoq, voqealar joyi bo‘lib o‘tadigan makon – Chin yurti, uning bosh qahramoni Farhodga ishora bo‘lgan tasvir vositalari va obrazlardan foydalanadi. Ijodkor kitobxonaga asar haqidagi dastlabki informatsiyalarni bera boshlaydi. Lu’bati Chin – “chin go‘zali tunning rashkini keltirib, mushkin sochlarni olam uzra yoydi. Sabo mushk hidini qanotiga olib, havo ra’nolariga tortiq qildi”[Navoiy, 2021: 16].

Yoshundi mushk ichinda Chin g‘azoli,
Dema Chinkim, falak zarrin g‘azoli.
Qayu zarrin g‘azola, turki chin de,
Qaro tufroqqa kirgon mahjabin de[Navoiy, 2006: 15].

Tun tasviridagi obrazlar va sujet detallaridagi o‘xshashliklar, asar kompozitsiyasini shakllantirishda ijodkor yaxlit uyg‘unlikka intilganidan dalolatdir. Xushbo‘y mushk tarqatib tun rashkini qo‘zg‘agan Chin g‘izoli mushk ichiga berkindi. Aslida, bu Chin g‘izoli emas, falak zarrin g‘izolidir. Qorong‘u kecha tasvirini berarkan, shoir kuchli **mubolag‘a** asosida **rujuga** ruju qo‘yadi. Ya’ni, buni nainki zarrin g‘izol, Chinning go‘zali, balki qaro yerga kirgan oy yuzli deydi.

Qo‘yosh so‘gi ishi kirgach arog‘a,
Falak lu’batlari kirdi qarog‘a.
Ne so‘gu ne qaro, iqbol shomi,
Jahonning asru farruxfol shomi,
Bo‘lub har shabnami Nohid yanglig‘,
Yorub har axtari xurshid yanglig‘[Navoiy, 2006: 15].

Quyoshning botishi bilan kirgan shom motam kabitdir. Aslida, bu motam emas, balki uzoq vaqtidan beri kutilgan “iqbol shomi”, jahonning “farruxfol shomi” – eng baxтиyor kechasi edi. Har bir shabnam Nohid (Zuhra) misoli yorug‘, yulduzlar quyosh singari porloq edi. O‘ta bo‘yoqdor,

tashbehli tasvirlar Me'roj tunidagi osmon jismlarining barchasini ko'z oldimizda yaqqol gavdalantiradi. Ushbu uchrashuvni sabrsizlik va xursandchilik bilan kutayotgan samoviy jismlar holatini tungi mehmon yo'lini poylagan yuz ming ochiq yuzli hurlarga qiyoslab shoir qorong'u kecha tasvirini yakuniga yetkazadi:

Yorug'luq muncha yo'q anjumg'a maqdur,

Ochib ruxsori sham'in yuz tuman hur [Navoiy, 2006: 15].

Xulosa qilib aytganda, "Xamsa" tarkibidagi na'tlar garchi hammasi umumiylar ma'noda Rasulullohni vasf etib, me'roj voqeasini badiiy tasvirlasa-da, ayni paytda, Navoiy har bir dostonda so'z yuritilayotgan mavzu tabiatiga uyg'un holda, na'tlarda ham alohida – o'ziga xos masalalar talqinini beradi. Hazrat Alisher Navoiy Nabiylayhissalomni vasf qilarakan, ham adabiyotni, ham tasavvufni, ham o'zining idealini ul zotning sur'at-u siyratida ko'radi. Shuning uchun shoir Muhammad sollallohu alayhi va sallamni Komillar komili – mutlaq komil inson – estetik ideal sifatida madh etib, komillik sifatlarini quyidagi to'rt yo'nalishda ta'riflaydi: komil xalq; komil xulq; komil qavl; komil fe'l.

Boblarning so'ngida karamli axloqlar sohibi, olamlarga rahmat bo'lgan zot – Allohnning rasulida go'zal o'rnak borligini yana bir bor e'tirof etadi. Ul zotni xulqi bilan xulqlanish, sunnatlariga amal qilish, ibratga to'la hayotini o'qib-o'rganish va doimo unga amal qilish komillik sharti, baxt-saodat kaliti ekanligini uqtiradi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2006.
2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Тўлиқ насрый табдил муаллифи Манзар Абдулхайр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
3. Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Куръон оятлари ва хадисларнинг бадиий талқини. PhD диссертатсия авторефарати. – Самарқанд, 2017.
4. Комилов Н. Комиллик илми // Филология масалалари. 2001йил. № 1, – Б. 16-18.
5. Исмоилов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достони қиёсий таҳлили. PhD диссертатсияси. – Тошкент, 2019.
6. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Олтинчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008.

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA RUHNING BADIY IFODASI

Ibotova Madina

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
ibotovamadina@gmail.com

Sharq falsafasida jon va ruh tushunchalari turli falsafiy va diniy an'analarga ko'ra turlicha talqin qilingan. Mazkur muammo turli fanlar doirasida o'rganiladi. Ruh va uning tabiatini turli manbalarda falsafa, din va tasavvuf kabi mavzularda muhokama qilinadi. Mazkur tushunchalar adabiyotning ham muhim masalalari sirasi kiradi. Islom dining asosi bo'lgan Qur'on Karim ta'limotiga ko'ra ruh – hayot manbayi. Qur'onda insonning yaratilishi haqida ko'plab oyatlar mavjud. Buning asosini “Sajda” surasidagi 9-oyatida o'qishimiz mumkin: "Alloh uni (insonni) to'liq shakllantirib, unga O'z ruhidan pufladi." Ruh Xudoning ijodidir va inson tanasiga nafas